



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 2 2024





МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

2-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

2-сан 2024

март

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Хушбоқ НОРБҰТАЕВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Улфат МАҲҚАМОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Раъно ОРИПОВА
Интизар АБДИРИМОВА	Бахтиёр РАХИМОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Марифжон АХМЕДОВ	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Умида БАҲАДИРОВА	Дилшода САПАРБАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Феруза САПАЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Қаххор ТУРСУНОВ
Шахло БОТИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тажибай УТЕБАЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Вохид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



Axmedova A. Talabalar maxsus tayyorgarligini amaliyotda o'quv materiallari orqali tarkiblashtirish metodlari	160
Yoziyeva U.L., Ergasheva N. Pedagogik jarayonlarda refleksiv yondashuvning ahamiyati	164
Umirov A.A. Didaktikada elektron ta'lim resurslarini o'quv jarayoniga joriy etish xususiyatlari	169
Ergashev N.G. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar tizimini joriy etish integratsiyasi va asosiy yo'nalishlari	174
Choriyeva M.B. Pedagogik amaliyotlar orqali talabalarni ijtimoiy adaptiv faoliyatga tayyorlashning afzalliklari	179
Boymatova M.R. O'qituvchi shaxsida emotsional intellektning o'ziga xosligi	183
Shonazarov J.U. Ma'naviy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari	187
Choriyeva F.A. O'quvchilar xulqidagi yosh bilan bog'liq o'zgarishlarni korrektsiyalashning pedagogik tizimi	191
Xo'jamberdiyeva M. Shaxs tarbiyasida eydekologiya tamoyillaridan foydalanishning qiyosiy tahlili	195
Temirov M.Sh. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishning pedagogik shartlari	199
Очилов А.Э. Педагогика ва психологияда математик ижодкорлик	202
Buriyeva N.R. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish	206
Jabborova D.B. Genetik munosabatlar tushunchasini shakllantirishda maktab kimyoviy eksperimentining ahamiyati va ularda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi	211
Choriyeva Z., Usanova M. Oliy ta'lim muassasasidagi boshlang'ich ta'lim talabalari shaxsining o'qituvchilik kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni	216
Aslonova O.P., Xushvaqтова M. Sh. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish imkoniyatlari	221
Zaripova M.Q. Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish, davlat-jamoatchilik tamoyiliga ko'ra boshqarishning psixologik-pedagogik asoslari	226
Yuldosheva Yu.J. Ta'lim tizimini boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish	229
Choriyeva Z.T., Boynazarova M. Pedagoglarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda ta'limga integratsion yondashuvning ahamiyati	233
Xalikova Sh.T. Ta'lim jarayonida ko'rish nuqsoniga ega maxsus maktab tarbiyalanuvchilari tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xosligi	237
Urinbayev S.Q. Ta'lim sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	241
Ashurov N.R. Malakaviy pedagogik amaliyot davrida o'quv jarayonini tashkil etish	246
Xolmatov P.Q., O'tayev A.Y., Mirzaxmatov B.B. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb-hunarga yo'llash ishlarini tashkil qilish mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari	252
Sharapova Z.F. Ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyani tashkil etishning zamonaviy metodlarini qo'llash masalalari	258
Abduxamidov S.M., Qadamova B.S., Shivoqova R. O., Xusniddinova M. S., Ismatullayeva N. R. Bo'lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kreativ pedagogika ustuvor yo'nalishi sifatida	262
O'tayev A. Y. O'zbekistonda pedagogika fanining dolzarb masalalari	266
Ачилова Э.С. Адабий таълимни такомиллаштириш муаммосининг педагогик тадқиқотларда ўрганилиш тадрижи	271
Meylieva M.S. Individual yondashuv orqali talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	276
Musurmonov R. Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni barqarorlashtirishda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish	283
Raxmanova M. Q. Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy va pedagogik omillarning o'zaro aloqadorligi	288
Суяров А. М., Ержанова А.А. Мактаб раҳбарларининг касбий компетентлигини шакллантириш имкониятлари хусусида	295



TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANNIRISH JARAYONIDA IJTIMOIIY VA PEDAGOGIK OMILLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Raxmanova M. Q.
p.f.d., (DSc)

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy faol ma’naviyat, madaniyat innovatsion texnologiya, interfaol yondashuv.

Ключевые слова: социально активная духовность, культура, инновационные технологии, интерактивный подход.

Key words: socially active spirituality, culture, innovative technologies, interactive approach.

Jamiyatning demokratlashuvi va insonparvarlashuvi sharoitida kasbiy etuklikka yaxlit tizim sifatida yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi, tabiiy. Eng avvalo, e’tiborni «kasbiy etuklik» tushunchasining mohiyatiga qaratsak.

Unda «kasbiy etuklik» eng umumiy ma’noda, «xodimning alohida ish beruvchidan ma’lum ma’noda mustaqil bo‘lishiga olib keluvchi, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayoni», deya ta’kidlab o‘tilgan. Ta’rifdan kelib chiqib, shuni dadil aytish mumkinki, professionallashuvning bunday tushunilishi, birinchi navbatda ta’lim jarayoni hamda o‘qituvchi va murabbiylar faoliyati bilan mos keladi. Kasbiy tayyorgarlik - ta’lim oluvchilarda biror ishni bajarish uchun zarur malakalarni jadal ravishda egallash maqsadidan kelib chiquvchi kasbiy ta’lim tizimidir.

Kasbiy ta’lim - kasblar olamiga yo‘nalganlik va moslashuvni ta’minlovchi, ijtimoiy va pedagogik tashkil etilgan shaxsning mehnatga doir ijtimoiylashuv jarayoni, aniq mutaxassislik va malakaviy darajani egallash, inson faoliyatining turli sohalarida uzluksiz ravishda malaka, mahoratning oshib borishi va qobiliyatlarning rivojlanishi. Kasbiy ta’lim shaxsning mahoratini qaror topishi, rivojlanishi va shaxsni o‘z-o‘zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratib beradi



va jamiyatning insonparvar va demokratik maqsadlariga erishishiga yordam beradi .

Kasbiy etuklik - kasbiy faoliyatdagi vazifalarni bajarishdagi yuqori darajadagi tayyorgarlikni ifoda etsa, professional deganda, o'z kasbiga to'la moslashgan va mehnatning psixologik vositalariga ega bo'lgan inson tushuniladi .Talabaning kasbiy tayyorgarligi -integrativ shaxs xususiyati bo'lib, uning OTMni tamomlagandan keyingi faoliyati samaradorligining muhim shartidir .

Kasbiy etuklik o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun bo'lajak mutaxassisda shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarbiyalash talab etiladi. Biz bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash haqida fikr yuritayotgan ekanmiz, «kasb tarbiyasi» tushunchasiga ham to'xtalib o'tishimiz zarur.

V.A.Slastyonin, S.B.Elkanov, A.J.Ajibaevlar « kasb tarbiyasi» tushunchasini quyidagicha izohlashadi: «Natijasi bo'lajak mutaxassis tomonidan kasbiy qadriyatlarni va ideallarni egallash, uning ma'naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini, ijtimoiy-qadriyatli motivlarni kengaytirish, hissiy, axloqiy va estetik tuyg'ularni, empatik qobiliyatlarni boyitish, amaliy pedagogik ko'nikma, malaka, odatlarni, o'z-o'zini refleksiya qilish tajribasini egallash kabi shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan tadrijiy dialektik harakatdir».

Kasbiy etuklik yaxlit tizim sifatida bir kancha tarkibiy qismlarni o'zida uyg'unlashtiradi. I.P.Podlasıyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, biz ta'limdagi kasbiy etuklik , ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo'nalishlariga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- madaniyat;
- ijodkorligi;
- aql-idrok;
- kasbiy chukur bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubi;
- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;
- insonparvarlikka yo'naltirilganlik;
- ijtimoiy faollik.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kasbiy etuklik (professionallashuv) ka yaxlit hodisa sifatida qarash, uni tashkil etuvchilarning roli va ahamiyatini pasaytirmaslik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.



Ma'lumki, bo'lajak mutaxassisni tayyorlash masalasi ham umumiy shaxsning rivojlanishi muammosi singari qarama-qarshiliklar jarayoni va natijasidir. Chunki bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllanishi ko'plab ichki, o'zaro ta'sir etuvchi mahsulдор sabablar(omillar)ni taqozo etadi. Pedagogik adabiyotlarda mutaxassisning kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi mahsulдор sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya'ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan talqin etilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat - tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik kadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazariga ko'ra, pedagogik madaniyat - bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi sub'ekt sifatida kasbiy etuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat - bu pedagogik qadriyatlarning tadbiq etilishini ta'minlovchi, mutaxassis kasbiy faoliyatining o'ziga xos usullari majmuidir.

Pedagogik madaniyat - bu inson shaxsining integrativ sifati tariqasida aniqlanadigan dinamik tizimli ta'lim bo'lib, bu sifati o'zida ijtimoiy va shaxsiy-kasbiy vazifalar, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy umuminsoniy qadriyatlar darajasida taraqqiy etishni hisobga olgan holda, pedagogik qadriyatlarni ijodiy tarzda amalga oshira olish layoqatini jamlashi zarur

Pedagogik madaniyatning mufassal tavsifi L.D.Stolyarenko tomonidan quyidagicha ochib berilgan: «Pedagogik madaniyat - bu umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, unda eng avvalo, avlodlar almashinuvi va shaxsning ijtimoiylashuvi kabi tarixiy jarayon uchun xizmat qilishda insoniyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy va moddiy qadriyatlar aks etgan.

Pedagogik madaniyatning eng asosiy kadriyati - bola, uning rivojlanishi, ta'limi, tarbiyasi, ijtimoiy himoyasi, uning qadr-qimmati va xuquqlarining muhofazasidir.

Pedagogik madaniyatni pedagogik faoliyatni ijodiy o'zlashtirish usuli sifatida qarash lozim. Bugungi kun o'qituvchisi pedagogik madaniyatidagi yaqqol na'muna sifatida hamkorlik pedagogikasini keltirish mumkin.

Pedagogik madaniyat - bu qadriyatlarning, pedagogik faoliyat usullarining va o'qituvchi kasbiy xulq-atvorining dinamik tizimi. Mazkur tizimning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) pedagogik pozitsiya va shaxs sifatleri;
- b) kasbiy bilimlar va fikrlash madaniyati;
- v) kasbiy malakalar va faoliyatning ijodiyliqi;



g)shaxsni o'z-o'zini boshqara bilishi va kasbiy xulq-atvori.

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

1) shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri etakchi o'rin tutadi (J.Piaje, A.V.Mudrik);

2) bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega (3.Freyd);

3) shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi (J.Piaje);

4) shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlariga ega bo'ladi - mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi (T.Persons, R.Beyla);

5) shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davri shaxsning ijtimoiylashuviga o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi (R.Benedikt, M.Mid);

6) ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi (Z.Freyd, T.Persons, R.S.Nemov).

Bizning tadqiqotimiz doirasida mazkur tushunchaning mohiyati A.V.Mudrik tomonidan berilgan ta'rifga ko'proq mos keladi: «Ijtimoiylashuv - madaniyatni o'zlashtirish va qabul qilish jarayonida insonning rivojlanishi hamda o'z-o'zini o'zgartirib borishidir».

Demak, ijtimoiylashuv - insonning uning barcha yosh bosqichlaridagi tabiiy, maqsadli yo'naltirilgan hayot sharoitlari bilan o'zaro muvofiqlikda sodir bo'ladigan, madaniyatni egallashi va qayta tatbiq etishi jarayonidagi rivojlanishi va o'z-o'zini o'zgartirib borishidir. Mazkur jarayonda pedagogning eng asosiy vazifasi - insonning mustaqil fikrli, jamiyatdagi o'z o'rnini va shaxsiy orzu-intilishlari yo'nalishini anglaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga qodir shaxs bo'lib etishishiga erishishdan



iboratdir. Ushbu holatda, pedagogik faoliyat esa muhim bunyodkor ijtimoiy vazifani bajaradi: bu jarayonda nafakat yaxlitlikda shaxs shakllanadi, balki mamlakatning kelajagi aniqlanadi, uning madaniy va ishlab chiqarish salohiyati ta'minlanadi. Pedagogik faoliyatning kelajakni oldindan ko'ra olish bilan bog'liqlikdagi tavsifi uning maqsadlarining ko'p qirraliligini, faqat bugungi kun uchun shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirishnigina emas, balki kelajak uchun yo'naltirilganligini, yosh mutaxassislarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatga moslashuvinigina emas, ularning faoliyat sohasini innovatsiyalanib borishini ham aniqlab beradi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy etuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab etganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan takdirda amalga oshadi. Boshqacha aytganda, shaxsning ijtimoiylashuvi -- ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Ijtimoiylashuvning mufassal tavsifini va uning pedagogik faoliyatdagi o'rnini A.M.Stolyarenko quyidagicha keltirib o'tadi: «Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir». Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil - madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtidan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni — tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning sub'ekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi sub'ekt sifatida qaraladi.



Ijtimoiylashuv jarayonining ko'p omilliligi va keng qamrovliligini hisobga olib, kasbiy etuklikni uning bir qismi sifatida qarash mumkin.

Bugungi kundagi ijtimoiy taraqqiyot ijtimoiylashuv va kasbiy etuklik jarayonlari tavsifining murakkablashuvi bilan ifodalanadi. Buning oqibatida kasbiy ta'lim hamma vaqt ham talabaning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish masalasini muvafaqqiyatli hal eta olmaydi. Shuning uchun bugungi kunda kasbiy ta'lim oldiga quyidagi vazifalar ko'ndalang qo'yilmokda: talabaning kelgusidagi shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatining o'zaro muvofiqligini ta'minlash, boshqa qo'shimcha mutaxassislik bilan qurollantirish va faoliyat sohasini o'zgartira olishiga imkon berish, shaxsiy hayotida va kasbiy faoliyatida duch keladigan ijtimoiy, shaxsiy muammolarni hal etishga qodirligi va hozirjavobligini shakllantirish.

Eng asosiysi, kasbiy ta'lim shaxsning muvafaqqiyatli ijtimoiylashuvining zarur sharti bo'lib xizmat qilishi lozim. Mazkur jarayonda ta'lim shaxsni faol mustaqil faoliyatga jalb etib, uning talaba maqomini egallashi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajarishi lozim.

Kasbiy ijtimoiylashuvga tayyorlashning quyidagi vazifalari:

- 1) talabalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlash;
- 2) talabalarining hayot mazmunini ifoda etuvchi maqsadlarini rivojlantirish, ularning o'z ehtiyoj va imkoniyatlarini to'la anglab etishlariga ko'maklashish;
- 3) shaxslararo va kasbiy faoliyatga doir munosabatlar tizimida ularni o'z o'rnini aniq belgilay olish va o'z-o'zini namoyon qila olishga o'rgatish;
- 4) talabalarining hayotiy faoliyatini tashkil etishda faoliyatli-munosabatli yondashuvni joriy etish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- 5) shaxsning odamga (o'z-o'zini xolis baholash, o'z-o'zini hurmat qilish, qadr-qimmat, or-nomus, vijdon) va olamga nisbatan (insonparvar, demokratik, dialektik, ekologik tafakkur) yuksak axloqiy munosabatini shakllantirish;
- 6) talabalarining tashkilotchilik va boshkaruvga doir fazilatlarini rivojlantirish;
- 7) talabalarni murakkab pedagogik va hayotiy vaziyatlarda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlar qabul qilishga tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. Semina Ye.A. (2010). Kompetentnostnaya model vpusknika pedagogicheskogo vuza - budushchego uchitelya matematiki. Almanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. - № 5 (36). - S. 133-135.
2. Столяренко А.М. Общая педагогика. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. - 25 с.
3. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. - 43 с.



4. Фалсафа: қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир .Назаров). - Т.: Шарқ, 2004. -173-174 б.
5. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.
7. Mitina L.M. (2004). Psixologiya truda i professionalnogo razvitiya uchitelya. - M.: Akademiya. - 320 s.
8. Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.
9. Raxmanova M.Q. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dokd... diss. – T., 2023. – 220 b.
10. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug'allim ham yzliksiz bilimlendiriw. 2022. –№3/3, – B. 39-43.
11. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / “Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.
12. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / “Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.
13. Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2016). Innovatsionnaya deyatelnost pedagoga v obrazovanii. Molodoy uchyonyy, № 8 (112), S. 978-979.
10. Anorkulova G.M., Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2015). Metodologicheskie osnovy sistemnogo podxoda pri podgotovke uchiteley professionalnogo obucheniya. Molodoy uchyonyy, 93:13, S. 588-590.
14. Anorkulova G.M., Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2015). Model podgotovki uchiteley professionalnogo obrazovaniya na osnove sistemnogo podxoda. Molodoy uchyonyy, 93:13, S. 590-592.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada yoshlarimizning ta'lim tizimida ijtimoiy faolligini oshirish yoritilgan. Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy faolligini oshirish uning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik omillari aniqlangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подчеркивается повышение социальной активности нашей молодежи в системе образования, определяются особенности и педагогические факторы повышения социальной активности в системе непрерывного образования.

SUMMARY

This article emphasizes the increase in social activity of our youth in the education system, and identifies the features and pedagogical factors for increasing social activity in the system of lifelong education.